

ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSH OILALARDA KUZATILAYOTGAN AJRIM SABABLARI

Xolto'rayeva Zahro Doniyorovna

Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila tushunchasi, uning qanchalik muqaddasligi, oiladagi turli xil muammolar, ajrimlar ularning sabablari ko'rib chiqiladi. Ajrimlarning farzandlarga ta'siri va ularning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'rib chiqiladi. Oilaviy ajrimlar turlari, sabablari, ijtimoiy-psixologik hamda farzandlar uchun oqibatlari, jamiyat uchun zararli oqibatlari yoritib beriladi.

KIRISH

Jamiyat, yosh oila, ajrim, nikoh, oilaviy ziddiyatlar, er-xotin, farzand, oila kodeksi, mehr-muhabbat, ota-onा.

Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini, muqaddas maskandir. O'zbek xalqi uchun oila muqaddas maskan hisoblanadi. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Oila ma'naviy jihatdan butun bo'lsagina, mustahkam bo'ladi. Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat esa, albatta qudratli va mustahkam bo'ladi. Ota-onalar bir-biriga mehr-muhabbat qo'yib, do'st va ahil bo'lib yashasalar, ularning farzandlari ham dilkash, mehribon, iymonli insonlar bo'lib yetishadi. Lekin ota-onalar ahil bo'lib yashamasa, bir-birini hurmat qilmasa, haqorat qilsalar, ichkilikbozlikka berilsalar, bolalarni ursa, bu holat bolalarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat – Bosh Qomusimizda oila masalasiga alohida urg'u berilgani ham beziz emas. Konstitutsiyamizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Oilada ota-onा orasida ro'y berayotgan turli xil bahslar, majburiyatlar turmushning darz ketishiga va u bilan bog'liq mojarolar, ayrim xonadonlardagi mavjud notinchlik ma'naviy va ruhiy muhit natijasida sodir bo'layotgan nikohdan ajralishlar bugungi kunda jamiyatimizda jiddiy etibor qaratilishi lozim bo'lgan xavotirli masalalardan biriga aylanmoqda. Yurtimizda ajralishlar soni joriy yilda o'tgan yilga nisbatan anchagina ko'paygan. Mahallalarda ajrimlar sonining oshishi odamlarni hayratga solmoqda. Ayniqsa bir necha farzandlari bo'la turib ajrashayotgan ota-onalar farzandlarining taqdirini hech o'ylab ham ko'rishmayapti. Arzimagan sabablar orqali oilani barbod qilish, bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. Ota-onalar bunday vaziyatlarda faqat o'zlarini o'ylaydi va bolalarining yetim qolishlarini xech o'ylashmaydi. Xalqimizda ``Otasiz yetim – gul yetim, onasiz yetib – shum yetim`` degan maqol bor, bu maqolni negizida chuqr ma'no mavjuddir.

Oila tinchligi uchun eng ang avvalo mahalla ahli, mahalla faollari, keng jamoatchilik javobgardir. Bugungi kundagi islohatlar asosida yaratilgan yangi lavozimlar - ``Hokim

yordamchisi`` , ``Yoshlar yetakchisi`` va ``Ayollar faoli`` aynan oilaning shaxsiy osoyishtaligi, tinchligi, iqtisodiy barqarorligi ta'minlash uchun tuzilgan.

Insonni shakllantiradigan omil – hamkorlik, uni insongarchilikdan chiqaradigan narsa esa noahillikdir. Bir yigit bilan qiz yosh oila deb atalmish muqaddas dargoh ostonasiga qadam qo'yar ekan, ``Men oila qurishga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo'lishi uchun nimlar qilishim kerak?`` degan savollarni o'ziga bersa, mustaqil hayotga yuzaki emas, jiddiy masala deb qarasa, oilalarda paydo bo'ladigan ba'zi bir noxush holatlarning oldi olinar edi.

Bugungi kunda oilalarni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yosh oilalarga ko'maklashish davlat va nodavlat yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Ayrim davlat organlari oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, ularga davlat tomonidan moddiy yordam berishni ta'minlash bilan shug'ullanmoqda. Oilalarni qo'llab-quvvatlashda, oilaviy nizolarni hal etishga ko'maklashishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning roli kattadir. Ko'pincha oilalar, er-xotinlar yoki oilaning boshqa a'zolari o'z muammolarini yashirish, ularni oshkor qilmaslikka harakat qilishadi yoxud davlat organlariga, mahalla kommitetiga nisbatan ishonch yo'qligi sababli ularga murojaat qilishdan tiyiladi. Buning natijasida kichkina muammolar kattalashib, oilaviy nizolar va ziddiyatlar vujudga kelishiga hamda ajrimlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Bugungi kunda oilaviy majburiyatlarni bajarish muammosi oilaviy munosabatlardagi eng asosiy masalalardan biri sanaladi. Er-xotinning oilaviy majburiyatlarni bajarmasligi oqibatida ajrashishlar soni ortib bormoqda. Oilaviy nizolarga yana bir sabab sifatida biz yosh oilalar barqarorligini saqlashda uchinchi shaxslarning salbiy ma'nodagi aralashishlari deb hisoblashishlarimiz mumkin. Garchi oila kodeksida ``oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'ymaslik uning oldini olish asosiy masalalarga kiritilgan``.

Nikohning barbod bo'lishi shakllari va sabablarida har bir davrda o'ziga xos asoslar bo'lgan deyish mumkin. Masalan, Sharq mamlakatlarida qadimdan nikohning barbod bo'lishi eng kam uchraydi, deb hisoblab kelingan. Chunki oila institutining poydevori mustahkam bo'lishiga ajdodlarimiz qayg'urbanlar. Yetti pushti surishtirish, sovchilik instituti orqali bir-biriga mos keladigan yoshlarning taqdirini bog'lash, hattoki uzoq qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, ya'ni oldindan bir-birlarini bilgan odamlarning o'zaro kelishuvi, mehr va muhabbat rishtalari orqali oila qurish o'zbekchilikka xos odatlar sifatida qadrlangan va ta'kidlab o'tilgan nikoh motivlarining barchasida oqilona fikr yuritish, yoshlar va ular ota-onalarining ``yetti o'lchab bir kesishi`` olilaning mustahkam bo'lishi uchun zamin hisoblangan.

Eski manbalarda nikoh ajrimiga sabab bo'lgan omillar sifatida avvalo, er yoki xotinda to'ydan keyin aniqlangan nasliy xastaliklar, ko'p holatlarda erkak kishining, ayrim holatlarda ayolning boshqa inson bilan ``til`` topishib ketishi, mansabdor shaxsning kelinchakni yoqtirib qolishi va zo'rlik bilan eski oilani buzishga majbur qilishlar, farzandsizlik, ayolning bepushtligi sabab erkakning xotinni taloq qilishi, nochor yosh oilaning o'z ro'zg'orini yurita olmaganligidan ayolninmg boshqa odamga turmushga chiqishga majbur bo'lib qolishi kabi sabablar qayd etilgan. Ko'p hollarda nikohning barbod bo'lishidagi tashabbus asosan erkak kishining qo'lida bo'lgan. Agar u xohlasa barbod bo'lgan. Agar mabodo ayol tashabbus ko'rsatsa, u qattiq jazolangan, jamoatchilik uni qoralagan, hattoki tosh bo'ron qilganligi to'g'risida qadimgi tarixdan, eski kinofilmardan ma'lum. Qadimgi Xitoyda nikoh ajrimiga

olib keladigan sabablarga arning ota-onasi ra'yiga qaramaslik, ularga kelinning gap qaytarishi, betgachoparlik, bepushtlik, mahmadonalik, bedavo xastalik, rashk kabilar kirgan. Lekin, yuqoridagi holatlar bo'lsa-yu, ayol erining ota-onasiga aza tutayotgan bo'lsa yoki chin yetim bo'lsa, eri uni baribir uydab yubora olmagan. Muqaddas dinimizda ham oilaning buzulishiga olib keluvchi taloq masalasi aynan erkakka berilgan, aslida buning zamirida ham oilaning buzulishining oldini olish maqsadi ilgari surilgan.

Oilaviy ajrimlar bugungi kunda dolzarb muammo, jamiyatimizning og'riqli nuqtasiga aylanib ulgurdi. Yurtimiz jar yoqasiga kelib qolgan oilalarniasrab qolishga, bolalarni tirik yetim, onalarni tul qilmaslikka jiddiy e'tibor qaratayapti. Mahalla faollari, diniy ulamolar, ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotiga daxldor tashkilotlar va keng jamoatchilik harakatlariga qaramasdan, oilaviy ajrimlar soni ko'payib bormoqda. Oiladagi ajrimlarni oldini olishda asosan, yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiq. Ular oila muqaddas qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, noodatiy usul va yondashuvlar asosida olib borish kerak.

Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat, albatta qudratli bo'ladi. Prezidentimizning ``Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor`` , ``Ayol baxtli bo'lsa, oila tinch, jamiyat esa barqaror bo'ladi`` , degan sermano so'zlarini hayotga tatbiq qilish zarurligi davr talabi bo'lib qolmoqda. Oila ota, ona va farzanddan iborat uchta tirkakka quriladi. Oilaning baxt-saodati ham, uning kamoli va farovonligi ham, tinchligi va osoyishtaligi ham ana shu uch ustunning bir-biriga munosabatiga, ahilligiga, yaxshi tarbiyasiga bog'liq. Bular bo'lmas ekan, oila tanazzulga yuz tutaveradi. Bu inqiroz esa, o'z navbatida, jamiyatni larzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi ``Oila, bolalar va yoshlar`` deb nomlangan bo'lib, 76-moddasida ``Oila jamiyatning aosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nokohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidiga va tenf huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi``, deb alohida ta'kidlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida ``Oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli deb belgilab qo'yilgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi`` deb ko'rsatib o'tilgan.

O'zaro ishonch va muhabbat asosida qurilgan oila, albatta mustahkam bo'ladi. Oiladagi ma'naviy sog'lom muhitni yaratish ham ota, ham onaga bog'liq. Ba'zan jaxl ustida ota-onaning nomaqbul harakati o'rtadagi ishonchning yo'qolishiga, muhabbatning esa tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Er-xotin, qaynona-kelin o'rtasidagi ziddiyatlar va tushunmovchiliklar, og'ir iqtisodiy sharoit va hayotga yengiltaklik bilan yondashish kabi

illatlar oila buzulishiga sabab bo’ladi. Bundan tashqari, ishsizlik, moddiy qiyinchilik, ruhiy tushkunlikka tushish, uy-joy muammosi, o’zlari va farzandlarining turli oqimlarga kirib qolishi oilaviy ajrimning sabablari hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan har yili ajralishlarning global koeffitsiyenti berib boriladi. Mazkur ma’lumotlarga ko’ra nikohdan ajrashish statistikasi bir qator ta’sirchan omillar tufayli keskin o’zgarib borganini ko’rishimiz mumkin. Dunyo bo’yicha ajrashishga juftliklarning o’zaro mos kelmasligi, xiyonat, giyohvantlikka ruju qo’yish, spirtli ichimliklar iste’mol qilish, moddiy yetishmovchilik hamda jismoniy, ruhiy zo’ravonlik katta ta’sir o’tkazadi. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko’ra, 2022-yilda O’zbekistonda keltirayotgan raqamlarni o’tgan yilgisi bilan taqqoslaganda oilaviy ajrimlar soni 24%ga oshgan. Masalan, 2021-yilda jami 39227 ta oila nikohi bekor qilingan bo’lsa, 2022-yilda ularning soni 48734 tani tashkil etgan.

Hozirgi kunda O’zbekistonda oilaviy ajrim dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Ajrashishlarning sabablari o’rganilib, yoshi katta onaxonlar, mahalla faollari muammolarni hal etish yo’llarini izlashlari lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ``Mahalla - tinchlik va osoyishtalik poydevori, ahillik va hamjihatlik, ma’rifat va tarbiya qo’rg’onidir``. Oilaviy ajrimlarning oldini olish maqsadida hukumat tomonidan barcha qonunlar qabul qilinmoqda va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, mahallada ajrim yoqsiga kelib qolgan har bir oila bilan alohida ish olib borishni amalga tatbiq etish zarurdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda ``Oilaviy ajrimlarga asosiy sabab nima deb o’ylaysiz?`` savoli bilan o’tkazilgan kichik so’rovnoma da ham tarmoqning aksariyat foydalanuvchilari urfodatlar, qaynonaning kelinga soliq solishi, kuyovning esa kelin tomonidan mulk tama qilishi, kelinning ota uyiga ``gap tashishi``, telefon va ijtimoiy tarmoqlar, yoshlarning na fikrlash, na pul topish borasida mustaqil emasligi, yigitlarning o’z so’zini o’tkazishga harakat qilishi, qizlarning esa ``xo’p``dan yiroqligi, diniy bilimdan bexabarlik, o’zaro hurmat tushunchasining yo’qolishi, besabrilik, aybini tan olmaslik kabilarni sanab o’tishdi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, ajrashish arafasida turgan, ajrim qayd etilgan oilalarning muammolari bir-biriga o’xshamaydi. Ammo har biri o’z yechimiga ega, ajrimga qadar oilani saqlab qolishning imkoniyati ancha yuqori bo’lgan.

Islom dini aqidasiga ko’ra, ota-onaning xizmatini ado etish farzandlarning bo’yniga qarzdir, kelinning emas. Padar va volida o’rniga ko’rilgan qaynona-qaynotalar kelinning xizmatlarini ehson, deb qabul qilishlari, kelin esa ularga xizmat qilishni sharaf, deb bilishi kerak. Bu munosabatlар zamirida kelinga uy xizmatchisi sifatida qarash adolatdan emas. Shu bilan birga, kuyovning kelin qalbida o’zining qarindoshlariga nisbatan yuksak hurmatni shakllantira olishi, qizning tarbiyasi asosiy ahamiyatga ega.

XULOSA:

Xulosa qilib shuni aytadigan bo’lsak, yoshlarning oila haqida tasavvuri va uning atrofidagi masalalarga borib taqaladi. Kalavaning uchi davlat tashkilotlarining yoinki ota-onaning qo’liga tutqazib qo’yish emas, chigallikni hamjihatlikda yechishga urinish kerak. Turmush qurgan er-xotin ham o’zlarini har tomonlama ta’minlash masalasida, ham mulohaza

yurita olishda mustaqillikka ega bo'lishi, nafaqat o'zining shaxsiy qiziqishlari, balki farzandining taqdiri borasida ham mas'uliyatni his etishi lozim.

O'zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajrimlardan so'ng ``tirik yetim`` bolalar soni o'zbek oilalarida 2-2,5 marta ko'p. Bizning madaniyatimizga bu kabi ko'rsatgichlar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ajralishlarning salbiy asoratlari o'zbek oilalarida boshqa millatlar oilalaridagiga qaraganda nisbatan kuchliroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
- 2.Akramova.F.A.,Abdullayeva R.M.S xalq mutaffakirlarining oila xususidagi qarashlari.t.:Shams, 2002. – 25b.11.
- 3.shoumarov. Sh.B., Shoumarov.G'.B. Muhabbat va oilaviy hayot. – T.; - Ibn Sino, 1996.
- 4.Oilani o'rghanish psixodiagnostika metodikalari. N.A.Sog'inov, F.G'.Habibullayev. - T.; 1996.